


## **“2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi Farmon qabul qilindi**

Ma’lumki, joriy yil 28-yanvar kuni O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “2022-2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida”gi PF-60-sonli Farmoni qabul qilindi. Mazkur Farmonda qonun ustuvorligini ta’minlash, yoshlarni qo’llab-quvvatlash, ilm-fanni rivojlantirish, ma’naviy taraqqiyotni ta’minlash, xavfsizlik va mudofaa salohiyatini kuchaytirish, qisqa qilib aytganda, respublikamizni har tomonlama rivojlantirish orqali jamiyatimizda inson qadrini ulug’lashdek yuksak maqsad ko’zlangan.

Xususan, strategiyaning 51-maqsadida iqtisodiyotga innovatsiyalarni keng joriy qilish, sanoat korxonalarini va ilm-fan muassasalarining kooperatsiya aloqalarini rivojlantirish, innovatsion hududga aylantirilayotgan tumanlarda mavjud analoglaridan 50 foizgacha arzonlashtirilgan va sifatli, xomashyo narxiga nisbatan 2-3 baravar yuqori qo’shilgan qiymat yaratadigan innovatsion mahsulotlar ishlab chiqarish texnologiyalarini o’zlashtirish, shu jumladan, umumiyligi 165,9 milliard so’mlik jami 195 ta loyihani amalga oshirish vazifasi ham borki, bu ilm-sohasining har bir vakiliga alohida mas’uliyat yuklaydi.



Shuningdek, Farmon bilan "Inson qadrini ulug'lash va faol mahalla yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida har bir davlat organi va tashkiloti oldiga qator vazifalar qo'yilgan. Jumladan, Fanlar akademiyasiga ham qator vazifalar belgilanganki, pirovardida ilm-fan rivoji turibdi. Xususan, vodorod energetikasi, qishloq xo'jaligi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini yanada rivojlantirish, urug'chilik va ko'chat yetishtirish bo'yicha milliy dasturni amalga oshirish, Toshkent shahrida turizmni yanada yaxshilash maqsadida shaharning 12 ta darvozalarining tarixiy ko'rinishlari tiklash ishlari, tarix fanini 2030-yilgacha rivojlantirish kontsepsiyasini amalga oshirish, xorijiy davlatlarda o'zbek tili, madaniyati va milliy an'analarimizni keng ommalashtirish, gumanitar aloqalarni mustahkamlashdan iborat bo'lgan Alisher Navoiy xalqaro institutini tashkil etishni tezlashtirish kabi muhim yo'nalishlar belgilangan.

Mazkur Farmon va shu asosida tasdiqlangan davlat dasturi inson qadrini ulug'lash, mamlakatimizni har tomonlama rivojlantirish, jahon hamjamiyati munosib o'rinda bo'lismeni ta'minlaydigan aniq maqsadga qaratilgan dastak bo'ladi, desak mubolag'a bo'lmaydi.